
Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi o'tkazildi

Bugun Rishton tumani hokimligi majlislar zalida Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining navbatdagi 75-sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiya ishida tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimining o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalalarga aloqador mas'ul xodimlar ishtirok etdilar.

■Kun tartibidagi birinchi masala 2024 yilning 3 choragidagi tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, bu borada hududiy sektorlarda MFY yettiligi, mutasaddi tashkilot karxonalar rahbarlarining faoliyati, murojatlar bilan ishlashning ahvoli va navbatdagi vazifalar to'g'risida tuman xalq qabulxonasi mudiri Sh. Rahimovning hisoboti tinglandi. □Ikkinchi masala yuzasidan tuman hokimi va sektor rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102-sonli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan 2024 yil 9 oy yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axborotlari o'qib eshtirdi. □Uchinchi masala yuzasidan Rishton tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Rahmonqulovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvar kungi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-39-sonli qarori ijrosi yuzasidan 2024-yilni 9 oyida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti tinglandi. □To'rtinchi masala yuzasidan tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i I.Djo'raevning: -Rishton tumanida "Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayonining 2024-yil 2-bosqichida g'olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar; -Rishton tuman mahalliy byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning iqtisod qilingan hamda samarasiz xarajatlari qolgan byudjet tashkilotlari xarajatlarining yetishmagan qismiga yo'naltirish; -"Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayonini 2-bosqichida g'olib deb topilgan Mehnatobod MFY xududida 2 ta ichimlik suvi uchun quduq qazish va Yangihayot, Temir yo'l ko'chalariga tarmoq tortish loyihasini amalga oshirish uchun xalq deputatlari tuman Kengashining 20.09.24-yildagi VI-74-82-11-158-K/24-son qarori bilan belgilangan buyurtmachi tashkilotini o'zgartirish;-"Tashabbusli byudjetlashtirish" jarayonining 2023-yil 2-mavsumida g'olib deb topilgan tumandagi "Xojiqishloq" MFY dagi S.Rahimov ko'chasini asfaltlashtirish loyihasiga qo'shimcha mablag' ajratish to'g'risidagi ma'lumoti. ■Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 yanvardagi "Quyida bug'inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligi oshirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi PQ-5-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida hisoboti tinglandi.????Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari sessiya mobaynida kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilgach, sessiya o'z ishini yakunladi.

2024-10-23 13:56:19